



METHODOLOGY OF SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH UNDER CONDITIONS OF IDEOLOGICAL STRUGGLE

Hamdam Tukhtayevich Umarov

*Independent Researcher at the Institute for Social and Spiritual Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: ideological struggle, spiritual threat, youth education, information attack, ideological immunity, national idea, ideological prevention, internet threat, globalization, national identity.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for shaping the spirituality of the younger generation amid the intensifying ideological struggle influenced by the global information flow, the internet, and social networks in the 21st century. It explores ideological and spiritual threats, their negative impact on human consciousness, thinking, and national values, and substantiates the necessity and methods for developing ideological immunity in the minds of youth. The article also emphasizes effective preventive measures against ideological manipulation carried out via information technologies and highlights the relevance of forming conscious protection mechanisms based on national ideology.

MAFKURAVIY KURASH SHAROITIDA YOSH AVLODNI MA'NAVIY TARBIYALASH METODOLOGIYASI

Hamdam To'xtayevich Umarov

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mafkuraviy kurash, ma'naviy tahdid, yoshlar tarbiyasi, axborot xuruji, mafkuraviy immunitet, milliy g'oya, ideologik profilaktika, internet tahdidi, globalizatsiya, milliy o'zlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, XXI asrdagi global axborot oqimi, internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida kuchayib borayotgan mafkuraviy kurash sharoitida yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan. Maqolada mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar, ularning inson ongi, tafakkuri va milliy qadriyatlarga salbiy ta'siri, shuningdek, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni

shakllantirish zarurati va usullari asoslangan. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilayotgan g'oyaviy manipulyatsiyalarga qarshi samarali profilaktika choralari, milliy mafkura asosida ongli himoya mexanizmlarini shakllantirishning dolzarbligi asoslangan.

МЕТОДОЛОГИЯ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БОРЬБЫ

Хамдам Тухтаевич Умаров

*Независимый исследователь Института социально-духовных исследований
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеологическая борьба, духовная угроза, воспитание молодежи, информационная атака, идеологический иммунитет, национальная идея, идеологическая профилактика, угроза интернета, глобализация, национальная идентичность.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования духовности молодого поколения в условиях усиливающейся идеологической борьбы под воздействием глобального информационного потока, интернета и социальных сетей в XXI веке. Проанализированы идеологические и духовные угрозы, их негативное влияние на человеческое сознание, мышление и национальные ценности, а также обоснована необходимость и методы формирования идеологического иммунитета в сознании молодежи. Особое внимание уделено эффективным профилактическим мерам против идеологических манипуляций, осуществляемых с помощью информационных технологий, и актуальности формирования осознанных механизмов защиты на основе национальной идеологии.

Kirish

Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik tomonidan XXI asr — axborot va nanotexnologiyalar asri sifatida baholanmoqda. Bunday fikr ilmiy asoslarga ega bo'lib, zamonaviy texnologiyalarning inson ongi va tafakkuriga kuchli ta'sir o'tkazayotgani bu ta'rifni to'liq tasdiqlaydi. Axborot oqimi va raqamli muhitdagi tezkor o'zgarishlar natijasida, jamiyatdagi har bir fuqaroning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qarashlari, dunyoqarashi va faollik mezonlari keskin transformatsiyaga uchrayapti. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar endi faqat axborot almashinuvi vositasi bo'lib qolmasdan, balki insonning jamiyatdagi mavqeini belgilash, uning turmush tarzi, shaxsiy

qadriyatlari va hayotiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanib ulgurdi. Bu platforma va kanallar yoshlarning ma'naviy dunyosi, madaniy bilimi va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishida yetakchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, axborot texnologiyalari nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sir kuchiga ham ega. Bugungi globallashtirish jarayonida axborot makoni turli mafkuraviy tahdidlar, buzg'unchi g'oyalardan va yot ta'sirlardan uchun "ochiq eshik"ka aylanmoqda. Xususan, yoshlar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni ma'lum bir mafkuraviy g'oyalardan asosida yo'naltirish borasida psixologik va manipulyativ usullar tobora ommalashmoqda.

Asosiy qism

Global axborot makonida mafkuraviy ta'sirning turli shakllari keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni ma'naviy barkamol, tanqidiy fikrlay oladigan, har qanday yot g'oyalarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetga ega shaxslar sifatida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylandi. Bu esa zamonaviy tarbiya metodlarining nazariy va metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Hozirgi kunda davlatning barcha sohalari ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy yo'nalishlari qatorida mafkura sohasi ham internet va raqamli texnologiyalar vositasida boshqarilayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, yoshlar ongiga ta'sir etuvchi g'oyaviy hujumlar aynan onlayn makonda amalga oshmoqda. Asrlar davomida milliy qadriyat va an'analar asosida shakllangan ma'naviyatni asrab-avaylash bugungi kunda global muammolar qatoriga kirgan. Millat ma'naviyatining poydevori bo'lgan g'oya va mafkura har bir insonning ijtimoiy ongi, faolligi va shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omildir. Bu jarayonda insonlar o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, ularda jamiyatga moslashish, o'zini anglash, ma'naviy mezonlar asosida fikr yuritish qobiliyati yuzaga keladi. Ma'rifatli jamiyat barpo etish jarayonida olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning mazmun-mohiyatini jamiyat a'zolariga to'g'ri yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Buning uchun, avvalo, ushbu islohotlarning ma'naviy-mafkuraviy ishlar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash zarur. Shunday tahdidlarni shartli ravishda "ma'naviy tahdidlar" deb atash mumkin. Chunki, bunday holatlar fuqarolar ongida ishonchsizlik, ig'vo va nizolarga yo'l ochadi. Demak, mafkuraviy barqarorlik va targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi har qanday islohotning muvaffaqiyati uchun asosiy omillardan biridir. "Ma'naviy tahdid" iborasi ikki so'z birikuvidan iborat bo'lib, ma'naviy va tahdid. "Ma'naviy" deganda insonning ichki dunyosi, ongi va qalbi nazarda tutiladi.[1]

"Tahdid" iborasining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, arabchadan olingan, "do'q qilish", "qo'rqitish" degan ma'nolarni bildirib - bironi qo'rqitish, unga do'q-po'pisa qilish hamda biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish havfi degan ma'nolarni anglatadi.[2]

Biz, Ma'naviy tahdid - bu inson ongi va ruhiyatiga qaratilgan, muayyan maqsad va strategik rejalar asosida amalga oshiriladigan, jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligiga tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlaridir. Ushbu tahdidlar, odatda, muayyan ijtimoiy guruhlarning tili, dini, e'tiqodi va qadriyatlaridan qat'i nazar, ularning tafakkuri va fikrlash erkinligini izdan chiqarish, axborot manbalarini manipulyatsiya qilish, milliy o'zlikni inkor etish va uni buzishga qaratilgan bo'ladi.

Insonga qarshi yo'naltirilgan mafkuraviy, ma'naviy va axborot xurujlari, odatda, uni qaram qilishga qaratilgan rejalarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar asosan uchta asosiy omil orqali amalga oshiriladi:

- Ong va tafakkurni boshqarish - insonning erkin fikrlashi, tanqidiy mulohaza yuritishi va ma'rifiy taraqqiyotiga xalaqit berish, unda mafkuraviy chalkashlik va ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otish.
- Ruhiiy qaramlikka olib kelish - insonda qo'rquv, dunyoqarash va hayot falsafasiga nisbatan beqarorlik, shubha va ishonchsizlikni shakllantirish.
- Moddiy qaramlikni yuzaga keltirish - iqtisodiy tanglik, ijtimoiy adolatsizlik va ishsizlik orqali shaxsni mafkuraviy ta'sirga moyil qilib qo'yish.
- Shu bilan birga, ma'naviy tahdidlar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni boshqa ijtimoiy muammolardan farqlash imkonini beradi:
- Aniq makon va zamonga ega emasligi - bu tahdidlar, odatda, real hayot bilan virtual olam orasidagi chegarani yo'qqa chiqaradi, tahdid manbalari esa yashirin va noma'lum shaklda faoliyat yuritadi.
- Til tanlamasligi - jamiyatda milliy o'zlik va islohotlarga ishonchsizlik kayfiyatini shakllantirishda til vositasi ikkinchi darajaga tushib, asosiy maqsad sifatida ma'naviy assimilyatsiya ko'zlanadi.

Dinga e'tiqodning mavjud yoki yo'qligidan qat'iy nazar ta'sir ko'rsata olishi - mafkuraviy tahdidlar qaysi dinga mansubligidan qat'i nazar, u dinga nisbatan salbiy qarash uyg'otishga, yoki aksincha, dindan buzg'unchi g'oyalar uchun mafkuraviy qurol sifatida foydalanishga qaratilgan bo'ladi. Xususan, islom dini atrofidagi g'arazli informatsion kampaniyalar ekstremizm tahdidini umumiy diniy qadriyatlarga bog'lab, dunyo jamoatchiligida islom diniga nisbatan salbiy munosabat shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ekstremistik guruhlarning asl manbalari, moliyaviy qo'llovchilari va tashabbuschilari ko'pincha G'arb davlatlarida joylashgani holda, bu tahdid "Sharq" madaniyatiga nisbatan yon bosish vositasiga aylantirilayotgani haqiqatdan yiroq emas.

Tarixda to hozirgi kunga qadar ma'naviy tahdidlar yetkazadigan zarariga quyidagilar kiradi. Bular: inson qalbini qaram qilish, insonning erkinligi cheklanishi hamda ruhiy dunyosiga shikast

yetkazishi, kabi alomatlarini kuzatilsa, mafkuraviy tahdidlarda davlat olib borayotgan ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hamda sohalar va tarmoqlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'z navbatida ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarning yezilarli darajadagi ta'siri o'sha davlatdagi ziddiyatlarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Bu esa dunyoning har bitta davlati hox u katta hox kichik bo'lsin ijtimoiy-iqtisodiy zaiflashuvini poylab turgan gegamon davlatlar uchun ayni muddao hisoblanadi. Nega deganda qayerda tinchlik o'rniga notinchlik hukm sursa o'sha yerda uyushgan jinoyatchilik, o'g'rilik, odam savdosi giyohvandlik, qurol yaroq savdosi va boshqa ko'plab g'arazli ishlarni amalga oshirish uchun makonga aylanadi. Hozirgi dunyoning geosiyosiy manzarasiga e'tibor qaratsak bunga o'zimiz ham amin bo'lamiz.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya vositalari orqali inson ongiga ta'sir o'tkazuvchi tahdidlar turli shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ular asosan to'rt turga bo'linadi:

- Mafkuraviy tahdid bu inson dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zgartirishga qaratilgan mafkura asosidagi ta'sir.
- G'oyaviy tahdid bu tashqi manfaatlarga xizmat qiluvchi, ichki barqarorlikka zid g'oyalarning yoyilishi.
- Axborot tahdidi bu ommaviy va raqamli axborot vositalari orqali manipulyatsiya va yolg'on ma'lumot tarqatish.
- Diniy tahdid bu din niqobi ortiga yashiringan radikal g'oyalar orqali diniy barqarorlikka putur yetkazishdan iborat. Bu tahdidlarning barchasi inson ongi, ruhiyati va erkinligiga qaratilgan bo'lib, jamiyatda beqarorlik, zaiflik va qaramlikni keltirib chiqaradi. Ularga qarshi kurashishning asosiy yo'li – ma'naviy immunitetni shakllantirishdir.

Hozirgi globallashuv sharoitida jahondagi mafkuraviy muhit tobora murakkab tus olmoqda. Zamonaviy mafkuraviy tahdidlar faqatgina siyosiy yoki iqtisodiy sohalar bilangina cheklanib qolmasdan, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotga ham chuqur ta'sir o'tkazmoqda. Bu tahdidlar inson tafakkurini o'zgartirish, millatlar tarixiy xotirasi va qadriyatlariga putur yetkazishga qaratilgan bo'lib, umuminsoniy xavflar qatoriga kirib ulgurdi.

Mazkur tahdidlar orqali ta'sir o'tkazuvchi kuchlar ma'naviyatni asosiy vosita sifatida ishlatmoqda. Chunki inson ongi va qalbidagi o'zgarishlar jamiyatni ichida buzishning eng samarali yo'li hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun ilmiy asoslangan, maqsadli va tizimli yondashuvlarni talab etmoqda. Shundan kelib chiqib, mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash har bir mamlakat uchun strategik vazifaga aylanmoqda.

Mafkuraviy tahdid inson ongi va qalbini buzg'unchi g'oyalar bilan izdan chiqarishga qaratilgan xavfli jarayondir. U milliy qadriyatlar va mentalitetga yot g'oyalarni jamiyatga singdirish, aholi, ayniqsa, yoshlarni umumiy maqsad va g'oyalardan uzish orqali amalga oshiriladi. Bu tahdidlar, asosan, ma'naviy sohani nishonga oladi, chunki aynan ma'naviyat

jamiyatning tarixiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlaydigan ildizdir. Ayni paytda, mafkuraviy ta'sirning turli vositalari multfilmlar, musiqa, kino, trendlar, o'yinchoqlar va ijtimoiy tarmoq orqali tarqatilmoqda. Ularning har biri ortida ma'lum g'oya va g'araz yotadi. Bu jarayonga katta mablag'lar yo'naltirilgan bo'lib, asosiy nishon rivojlanayotgan davlatlar aholisidir. Shunday ekan, kun sayin kuchayib borayotgan mafkuraviy kurashlar davrida har bir shaxs mafkuraviy immunitetga ega bo'lishi nihoyatda zarur.

Xulosa

Xulosa o'rnida, axborot texnologiyalari va globallashtirish jarayoni fonida inson ongi va qalbini egallashga qaratilgan mafkuraviy kurash yangi bosqichga ko'tarildi. Bu kurash, asosan, yoshlar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni milliy qadriyatlardan uzish, o'zini o'zi anglashdan, tarixi va madaniy o'zligidan begona qilishga qaratilgan g'oyaviy, axborot va ma'naviy tahdidlar orqali amalga oshirilmoqda. Mafkuraviy tahdidlar ma'lum maqsad va ssenariylarga asoslangan holda, insonlarning ruhiy dunyosiga ta'sir o'tkazish, ongini manqurtlashtirish, ularni moddiy qaram qilish, milliy davlatlar barqarorligiga putur yetkazish, siyosiy va ijtimoiy zaifliklardan foydalanish orqali ro'yobga chiqarilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, internet-kontentlar va hatto ko'ngilochar mahsulotlar muhim qurolga aylanib bormoqda.

Shunday sharoitda yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, tanqidiy fikrlay oladigan, ma'naviy immunitetga ega shaxslar sifatida tarbiyalash, ularda milliy g'oya va o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish strategik ahamiyatga ega masalaga aylangan. Bunday tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun ilmiy asoslangan, milliy mafkuraga tayangan tarbiya va profilaktika tizimini shakllantirish, davlat va jamiyatning barcha tarmoqlarida ma'rifiy hamda mafkuraviy ishlarni kuchaytirish dolzarbdir. Mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash faqat davlatning emas, balki har bir fuqaroning milliy burchi va mas'uliyatidir. Chunki, ma'naviy zaiflik tashqi tahdidlar uchun ochiq eshik, milliy o'zlikni yo'qotish esa istiqbolsizlik demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 3-жилд. Т-Фан. 2008-й. 91-б.
2. XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Каримов.И.А.Т.: “Ўзбекистон” 1997 йил.
3. Миллий истиқлол ғояси: асосии тушунчалар, тамоииллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат). Қ.Назаров. Б.Очилдиев. Тошкент-2002. “Янги авлод асри”. 79б.
4. Мунаввар қори Абдурашидхон ўғли. Ислоҳ не демакдур// Хуршид, 28.09.1906; ушбу мақоланинг инглизча таржимаси: What Is Reform?//Modernits Islam: A Sourcebook, 1840-1940, ed. Charles Kruzman. – New York, 2002.- P.227-228.
5. Миллий ғоя: Саволлар ва жавоблар. Ўқув қўлланма. С.Рахимов. Т.Ташметов. Т-Наврўз. 2021-й.131-132 б

6. Юксак маънавият - енгилмас куч. Каримов И.А. Т.: Маънвият. 2008 йил.
7. Ахборот хавфсизлиги асослари. (Маърузалар курси) Тошкент-2013. 5-бет